

PARRANDACHILIK (tovuqchilik)

Ushbu dastur maktab o'quvchilari bilan tashkil qilingan ekologik to'garaklarda mashg'ulotlar uyushtirilib unda tovuqlar boqib, ular uy parrandalarinig biologiyasini to'liq bilib, tovuq va boshqa uy parrandalarini o'stirishda zootexnika qoidalarini to'g'ri qo'llanishini tovuqchilikdan mashg'ulot olib borishda o'quvchilarga tovuqlarning hayoti yuzasidan kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, ularni ko'paytirish kabi o'quv va malakalarini shakllantirish ustida ish olib boradilar.

Parrandachilik(tovuqchilik) to'garak dasturining asosiy maqsadi o'quvchilarni fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish ularni darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga, ongli ravishda kasb tanlashga o'rgatishdan iborat.

Tuzuvchi: pedagogika fanlari nomzodi , dotsent **M.Jabborov**

Taqrizchi: biologiya fanlari nomzodi. **S.Pozilova**

Dastur Respublika ta'lim Markazi Ilmiy-metodik kengashining qaroriga asosan chop etishga tavsiya etilgan.

Tushuntirish xati

Parrandachilik (tovuqchilik) to'garagining maqsad va vazifalari Parrandachilik (tovuqchilik) chorvachilikning juda tez ko'payadigan va foydali tarmog'idir. Parrandachilik mehnat, yem va mablag' kam sarflanadigan hamda qisqa vaqt ichida, ko'proq miqdorda va g'oyat mazali go'shtni olish hamda aholini tuxumga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash imkonini beruvchi tarmoq ekanini hisobga olib, eng muhimi yosh maktab o'quvchilari ularni boqish, parvarish qilish, ko'paytirish qo'llaridan kelishini hisobga olish juda muhimdir. Parrandachilik (tovuqchilik) to'garak mashg'ulotlarini muvaffaqiyat bilan olib borish uchun to'garak quyidagi shartlarga e'tibor berishi zarur.

1.Tovuqlarning biologiyasi ya tovuq o'stirish zootexnikasidan olingan bilimlarni esga tushirib olish.

2.Tovuqlar uchun maxsus tovuqxona qurib, uning oldida tovuqlarni yayrab yuradigan maxsus joy (hovli) qilish.

3.Zarur asbob - jihozlar tayyorlash.

4.Tovuqlar uchun zarur miqdorda oziqa tayyorlash.

5.Sermahsul zot (go'sht yoki tuxum uchun boqiladigan) tovuqlar sotib olish.

6.Ish rejasini tuzish.

7.Maktabga yaqin yerdagi parrandachilik xo'jaliklariga tez-tez borib yaxshi parrandachilarning ish tajribasini o'rganish.

Dastur bir o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib 144 soat vaqt ajratilgan, shundan 42 soati nazariy va 102 soati amaliy mashg'ulotlardir.

Parrandachilik (tovuqchilik) to'garagining mashg'ulot soatlari

| № | Mavzularning nomi | Jami soatlar | Shu jumladan | |
|----|---------------------------------------------------------|--------------|--------------|--------|
| | | | nazariy | amaliy |
| | Kirish | 2 | | |
| 1 | Parrandachilik(tovuqchilik) to'garagini tashkil qilish. | 16 | 6 | 10 |
| 2. | Tovuqlar biologiyasi | 4 | 4 | |

| | | | | |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------|-----|----|-----|
| 3. | Tovuqlar uchun tovuqxona qurish, tovuqxona hovlisi, tovuqxona jihozlari. | 4 | | 4 |
| 4. | Tovuq boqish va uni parvarish qilish. | 20 | 4 | 16 |
| 5. | Tovuq zotlari | 14 | 4 | 10 |
| 6. | Tovuq oziq'i va uni tovuqlarqa tayyorlab berish. | 14 | 2 | 12 |
| 7. | Tovuq boqish normasi va ratsioni | 14 | 6 | 8 |
| 8. | Tovuqlarni ko'paytirish. Inkubatsiya, inkubatsiyada embriinning rivojlanish sharoiti. | 10 | 2 | 8 |
| 9. | Jo'ja o'stirish va parvarish qilish. | 6 | 2 | 4 |
| 10. | Tovuqlar mahsuldorligini oshirish. | 14 | 4 | 10 |
| 11. | Tovuq kasalliklari. Kasallikni oldini olish. | 12 | 2 | 10 |
| 12. | Tovuq va jo'jalarni kuzatish va ular bilan tairibalar qo'yish. | 14 | 4 | 10 |
| 13. | Jami | 144 | 42 | 102 |

Parrandachilik (tovuqchilik) to'garak mashg'ulotlarining yillik mavzuviy o'quv rejai

| | Nazariy mashg'ulotlar. | Amaliy mashg'ulotlar. | 80 soat | Muddati |
|---|-------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|---------|----------|
| | Kirish | | 2 | Sentyabr |
| 1 | Parrandachilik (tovuqchilik) to'garaklarini tashkil qilish. | | 2 | |
| | Maktabda parrandachilik ishini boshlash. | | 2 | |
| | Tovuqxona qurishni boshlash. | | 2 | |
| | | Tovuqxona uchun ioy tanlash. | | |
| | | Tovuqxona maydoni qancha bo'lishini aniqlash. | 2 | |
| | | Tovuqxona devorini pishiq yoki xom q'ishtdan tayorlash. | | |
| | | Tovuqxonani tomini yopish uchun material tayyorlash. | 2 | |
| | | Tovuqlar uchun qo'noq joy qilish | 2 | Oktyabr |
| 2 | Tovuqlar biolgiyasi. | | 4 | |
| 3 | | Tovuqlar uchun tovuqxona qurish. | 2 | |
| | | Kataklar, tovuqxona hovlisi, tovuqxona jihozlari. | 2 | |
| 4 | Tovuq boqish va uni parvarish qilish. | | 2 | |
| | Havo temperaturasi va namlikning tovuq organizmiga ta'siri. | | 2 | |
| | | Tovuqlarni kuzda boqish va parvarish qilish. | 2 | |
| | | Tovuqlarni qishda boqish va parvarish qilish. | 2 | Noyabr |

| | | | | |
|---|----------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|---------|
| | | Tovuqlarni bahorda boqish va parvarish qilish. | 2 | |
| | | Tovuqlarni yozda boqish va parvarish qilish. | 2 | |
| | | Tovuqlarga yorug'likning ahamiyati. | 2 | |
| | | Tovuqlarni hovlida yayratish tartibi. | 2 | |
| | | Tovuqxonani tozalash va yoritish. | 2 | |
| | | Tovuqxonadagi to'shamalarni almashtirib yangi to'shamalar solib turish. | 2 | |
| 5 | Tovuq zotlari. Tovuq galasini yaxshilash va to'ldirish. | | 2 | |
| | Naslchilik ishlarini olib borish to'g'risida tushuncha berish. | | 2 | Dekabr |
| | | Sertuxum tovuqlarni tashqi belgilariga qarab aniqlash. | 2 | |
| | | Tovuqlarni kuzatish | 2 | |
| | | Jo'jalarni kuzatish. | 2 | |
| | | Tovuqlar bilan tajriba o'tkazish. | 2 | |
| | | Tovuqxonada qilingan ishlarni yakunlash. | | |
| 6 | Tovuq ozig'i jamg'arish va uni tovuqlarga tayyorlab berish. | | 2 | |
| | | Tovuqlarga oqsilli ozuqalar tayyorlash. | 2 | |
| | | Tovuqlarga vitaminli ozuqalar tayyorlash maktabga yaqin joydagi jamoa, shirkat xo'jaliklarida tovuqlarga beriladigan ozuqalarning turlari. | 2 | Yanvar |
| | | Saqlanish, yedirishga tayyorlanish bilan tanishib chiqish. | 2 | |
| | | Tovuqlarga donni undirib berish. | 2 | |
| | | Tovuqlarga tert tayyorlash. | 2 | |
| | | Tovuqlar uchun mayda shag'al toshlarni yuvib, yashiklarga solib qo'yish. | 2 | |
| 7 | Tovuq boqish me'yori va ratsioni ozuqlar ta'rifi. | | 2 | |
| | Tovuqlarga ozuqa berish me'yorlari. | | 2 | |
| | Tovuqlarga beriladigan ozuqlar ratsioni. | | 2 | |
| | | Tovuqlarni oziqlantirish tartibi | 2 | Fevral- |
| | | Maktab tovuqxonasida bo'lgan ozuqalar bilan tanishib chiqish. | 2 | |

| | | | | |
|-----|--------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|-------|
| | | Bitta tovuq uchun sutkalik taxminiy ratsion tuzish | 2 | |
| | | Maktabga yaqin joydagi tovuq fermalariga borib tovuqlarni boqish uchun qanday me'yor va ratsioni bilan tanishish. | 2 | |
| 8 | Tovuqlarni ko'paytirish. Inkubatsiya, inkubatorida embrionning rivojlanish sharoiti. | | 2 | |
| | | Inkubator uchun tuxum tanlash. | 2 | |
| | | Tuxum embrionini tirik ekanini tekshirish. | 2 | |
| | Bu ishlar maktabga yaqin joydagi inkubator stantsiyalarida olib boriladi. | Inkubatorida embrionni rivojlantirish sharoitini kuzatish. | 2 | |
| | | Inkubatorida embrionning rivojlanishi sharoiti bilan tanishish. | 2 | Mart |
| | | Tovuqqa tuxum bostirish. | 2 | |
| 9. | Jo'ja o'stirish ya parvarish qilish. | | 2 | |
| | | Jo'jalarni boqish. | 2 | |
| | | Jo'jalarni saralash. | 2 | |
| 10. | Tovuq zotlari. Tovuq mahsuldorliai. | | 2 | |
| | Tovuqlar mahsuldorligini aniqlashda naslchilik ishlarining ahamiyati. | | 2 | |
| | | Maktabga yaqin yerdagi parrandachilik fermalariga borib naslchilik ishlari bilan tanishish. | 2 | |
| | | Tovuqlarni tarozida tortib og'irligini bilish, ularni sertuxumliklarini aniqlash. | 2 | Aprel |
| | | Tovuqlarning tuxumini vazniga qarab, sertuxum yaxshi tovuqlarni aniqlab chiqish. | 2 | |
| | | Kuzda jo'jalarni eng yaxshilarini aniqlab, tovuqlar galasini to'ldirib borish. | 2 | |
| | | Tovuqlar galasini ko'rikdan o'tkazib yaxshilarini ajratib qolganlarini go'sht uchun topshirish. | 2 | |
| 11. | Tovuq kasalliklari. Kasallikni oldini olish ya davolash. | | 2 | |
| | | Tovuqlarni tekshirib sog' va kasallarini aniqlash. | 2 | |
| | | Tovuqlarga kasal yuqtiruvchi kanallarni topish uchun hamma tovuqxonani tekshirib chiqish. | 2 | |
| | | Tovuqxonani va qo'noqlarni ohak bilan oqlsh. | 2 | |
| | | Barcha tovuqxonona uskunalarni dezinfeksiya qilish. Yashiklardagi kul, qum aralashmalarini yangilab turish. | 2 | May |

| | | | | |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|---|--|
| | | Parrandalar orasida avitaminoz kasalligi bor yo'qligini kuzatish. | 2 | |
| 12. | Tovuq ya jo'jalarni kuzatish ya ular bilan tajribalar o'tkazish. | | 2 | |
| | Jo'jalarni kuzatish. Tovuqxonada qilingan ishlarni yakunlash. | | 2 | |
| | | Har xil oziqa berib boqish ratsionini tovuqlar mahsuldorligiga ta'siri bo'yicha tajriba o'tkazish. | 2 | |
| | | Oziqlantirish tartibini tovuq tuxumini ko'p, oz qilishga ta'sirini o'rganuvchi tajriba o'tkazish. | 2 | |
| | | Jo'jalarni ratsionga makkajo'xorini ko'proq qo'shib berib boqish tajribasini o'tkazish. | 2 | |
| | | Tovuq ratsioniga pilla qurti g'umbagi qo'shib ya qo'shmay boqish tajribasi o'tkazish. | 2 | |
| | Tovuqxonada qilingan ishlarni yakunlash. Fotosuratlar tovuq va jo'jalarning suratlari | | 2 | |

Mashg'ulotlarni olib borish uchun uslubiy tavsiyanomalar

Kirish(2soat)

«Parrandachilik» (tovuqchilik) to'garagining maqsad va vazifalari.

Parrandachilik (tovuqchilik) qishloq xo'jaligining eng muhim foydali tarmoqlaridan biri ekanligi haqida tushuncha berib boriladi.

1-Mavzu. (6-10 soat)

Parrandachilik (tovuqchilik) to'garaklarini maktablarda ya qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etish. Parrandachilik (tovuqchilik) qishloq xo'jaligining juda foydali tarmoqlaridan biri ekanligi uning xususiyatlari, tovuqlarni boqish usullari haqida tushuncha beriladi va tovuqlar biologiyasi va tovuq o'stirish zootexnikasidan olingan bilimlar qaytariladi.

Amaliy mashg'ulot:

Tovuqxona qurishni boshlash. Buning uchun maktab hovlisidan qulay joy tanlanadi. Tovuqlarni yayrashi uchun hovli ajratiladi. Zarur asbob-uskunalar tayyorlanadi. Bulardan so'ng tovuqlar uchun oziq g'amlash to'g'risida gapirib, hammasi tayyor bo'lgandan so'ng tovuqlar sotib olinishi kerakligi ustida tushintiriladi.

2-Mavzu. Tovuqlar biologiyasi (4-soat).

Bu mavzuda tovuq zotlari. Tovuqlarning gavda tuzilishi. Tovuqlarning anatomik fiziologik xususiyatlari. Tovuqlarning tez ko'payishi. Ularning go'shtini mazalik va parhezlik xususiyati borligi haqida tushuncha beriladi.

3-Mavzu. Tovuqlar uchun tovuqxona qurish(4-soat).

Maktabda tovuqxona binosini qurish uchun zarur bo'lgan materiallarni tayyorlashdan boshlashni, eng oldin joy tanlashni, tovuqxonada qanday bo'limlar bo'lishi lozimligini, tovuqxonani ichi quruq va yorug' bo'lish kerakligini va tovuqlarni kechasi tunashi uchun qo'noqxona bo'lishi kerakligi to'g'risidagi amaliy mashg'ulotlar bajariladi.

4-Mavzu. Tovuq boqish va uni parvarish qilish (4-16 soat)

Tovuqlarni to'g'ri boqish va parvarish qilish, ularni sog'lig'ini va mahsuldorligini oshirishi to'g'risida gapiriladi. Har xil tur va zot yosh tovuqlarni alohida ajratib boqish zarurligi haqida tushuncha hosil qilish kerakligi gapiriladi. Shundan so'ng havoning temperaturasini va namligini

tovuqlar organizmiga ta'siri haqida gapirilib, bunda tovuqlarning yuragini 4 kamerali bo'lishi, tomirida qonning tez harakat qilishi, oshqozonining kuchli ishlashi haqida gapirib berish zarur.

Amaliy mashg'ulotlar:

O'zbekistonda tovuqxonalar kuz va qishda isitilmaydi. Tovuxonalar tovuqlarni o'zidan chiqqan issiqlik bilan isiydilar. Tovuxonadagi deraza framugni ochib shamollatib turiladi. Tashqarida sovuq -10 S bo'lganda va undan sovuq bo'lsa framugani yopib qo'yish kerak. Agar qishda yorug'lik etarli bo'lmasa tovuq kam harakat qiladi, oziqni kam eydi. Bunday vaqtlarda erta tongda va kechqurunlari elektr lampa bilan yoritib turasiz. Havo yog'insiz ochiq bo'lib tursa ularni tashqariga chiqarib shamollatib turish foydalidir. Ochiq havoda yurgan tovuqlarni ishtaxasi ochiladi, sog'lig'i yaxshilanadi. Ochiq havoda yurganlarida o't, chuvalchang, hasharotlar bilan qo'shimcha oziqlanadilar. Tovuxona hovlisiga suv turadigan oxurча qilib suv to'ldirib qo'yasiz. Qishda qor ko'p yog'sa qorni kurab tovuqlarni chiqarib turasiz. Bahorda tovuqlar juda ko'p tuxum qiladi. Shuning uchun bahorda ularni boqishga alohida e'tibor berish lozim. Tovuxlar kun bo'yi ochiq havoda yayrab yurishi lozim. Tovuxonadagi to'shamalarni tez-tez tozalab turasiz uni o'rniga yangi to'shamalar solasiz. Bahor va yozda tovuq tuxum bosish instinkti paydo bo'ladi, ya'ni kurk bo'ladi. Agar lozim bo'lsa ularga tuxum bostirasiz.

5-Mavzu. Tovux zotlari (4-10 soat) Tovux galasini yaxshilash va to'ldirish.

O'zbekistonda asosan tovuqlarni tuxum beradigan ikki zoti - leggorn va rus oq tovuqlari boqilishini tushuntirib boriladi. Rus oq tovuq'i. leggorn tovuq'iga qaraganda gavgdali bo'lishini, og'irligi 2,1-2,2 kg, xo'roziniki 3 kg bo'lishini tushuntirib beriladi. Bu zot tovuqlar yiliga 150 dan 180 taga yetkazib tuxum qilishini aytib berasiz. Har qanday tovuqni mahsuldorligi naslchilik ishlarini qanday olib borishga bog'liqligini aytasiz. Nasl olish uchun eng yaxshi tovuq va xo'rozlarni tuxumidan jo'ja ochirib parvarish qilish kerakligini aytasiz.

Amaliy mashg'ulotlar.

Sertuxum tovuqlarni tashqi ko'rinishiga qarab aniqlash mumkin. Tovuxlarning erta tuxumga kirishi, tuxumni 8-10 oygacha qilish va yirik tuxum berishi kabi qimmatli sifatlarini avlodga o'tishini aniqlang.

Tovuqlar qarigan sari kam tuxum qiladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun har yili tovuq galasidagi qari tovuqlarni ajratib yangilab turing. Tovux tuxumga kirgan vaqtda chanoq uchi suyaklari o'rtasidagi masofa kattalashadi. Sertuxum tovuqlarda bu suyaklar uchi orasiga uch-to'rt barmoq sig'adi. Chanoq suyaklarining uchi egiluvchan, orqa chiqarish teshigi nam va kengaygan bo'ladi. Ana shu belgilariga qarab tovuqni tuxum qilish davri yetilganligini aniqlang. Tovuxlarni qancha tuxum berishini aniqlash uchun ularni alohida kataklarga qamab tuxum qilishini aniqlang. Agar tuxum bermaydigan tovuqlar bo'lsa ularni go'sht berishga topshiring.

6-Mavzu. Tovux ozig'i jamg'arish va uni tovuqlarga tayyorlab berish. (2-12 soat)

Tovuqlarga o'z vaqtida sifatli oziqlar berib turish lozim. Shunda tovuqlar sergo'sht va sertuxum bo'ladi. Belgilangan normalarga muvofiq har qaysi mavsum uchgun qancha oziq berish kerakligi to'g'risida gapiriladi. Suli, arpa, bug'doy kabi donlarni tovuqlarga berishdan oldin ivitib yoki undirib bering. Chunki bu donlarni po'sti juda qalin. Makkajo'xori donini maydalab berish kerakligi to'g'risida gapirib har xil tert ham qorib tovuqlarga berishni aytasiz.

Amaliy mashg'ulotlar.

Maktabingizda boqilayotgan tovuqlarga oqsilli oziqalar tayyorlab bering. Buning uchun tovuqlarga ko'proq chuvalchang bering. Chuvalchanglarda 10 protsentdan 18 protsentgacha oqsil bo'ladi. Vitaminli oziqlar ham tovuqlarga katta foyda keltiradi. Undirilgan donlarda vitamin ko'p bo'ladi. Shuning uchun tovuqlarga bug'doy, arpa, makkajo'xori donlarini undirib bersangiz ular vitaminli oziqalarga to'yib, sog'lom o'sadilar. Bulardan tashqari tovuq oshqozonini yaxshi ishlashi uchun mayda toshlar tashlab qo'ying. Ularni tovuqlar iste'mol qilib oshqozonda ovqatni yaxshi xazm qiladi.

7-Mavzu. Tovuq boqish normasi va ratsioni (6-8 soat)

Tovuqlar mahsuldorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri, ularni boqish va boqishni to'g'ri tashkil qilishdir. Shuning uchun tovuqlarni turli to'yimli oziqlar bilan boqish kerakligi to'g'risida tushuncha berish lozim. Oziq normalari hamma tovuqlar uchun bir xilda bo'lmaydi. Katta tovuqlarni, kichik tovuqlarga qaraganda ko'p oziq yeishini tushuntirib berish kerak. Tovuqlarga har xil oziqlar turli miqdorda beriladi. Bir sutkada beriladigan oziqlar xilini to'g'ri tanlash - oziq ratsioni deyiladi. Mana shularni to'garak a'zolariga tushuntirib berish kerak.

Amaliy mashg'ulotlar.

Tovuqlarni oziqlantirishda sutkalik ratsioniga qarab, tayyorlangan oziqlar kun bo'yi ma'lum tartibga binoan oziqlantiriladi. Oziqlantirish tartibi mavsumga qarab o'zgarib turadi. Qishda va yozda beriladigan oziqlarni o'z normasiga qarab oziqlantiring. Maktabingizga yaqin joydagi tovuq fermalariga borib tovuqlarni boqish uchun qanday norma va ratsionda berilishini ko'ring.

8-Mavzu. Tovuqlarni ko'paytirish. Inkubatsiya, inkubatsiyada embrionning rivojlanish sharoiti (2-8).

Tovuqlarni ko'paytirish. Inkubatsiya, inkubatorida embrionning rivojlanish sharoiti haqida ma'lumot beriladi.

Amaliy mashg'ulotlar.

Inkubator uchun tuxum tanlash, tuxum embrionini tirik ekanini tekshirish va inkubatorida embrionni rivojlanish sharoitini kuzatish va tovuqlarga tuxum bostirish haqida o'quvchilarga ma'lumot beriladi.

9-Mavzu. Jo'ja o'stirish va uni parvarish qilish (2-4 soat)

Tovuqxonada jo'jalar uchun ajratilgan joyni quruq, toza, issiq bo'lishi to'g'risida gapirib tushuntiriladi. Bir kunlikdan boshlab to bir oylik bo'lguncha jo'jalarni biroz isitilgan xonada boqish kerakligi to'g'risida ma'lumot berish lozim. Jo'jalarni dastlab maydalangan oziqlar bilan boqishni tavsiya etiladi. Ular kattaroq bo'lganda o'zlari mustaqil ovqat yeb ketishini tushuntirish lozim.

Amaliy mashg'ulotlar.

Jojalarni har xil norma va ratsion bilan boqing. Dastlabki bir oyda jojalarga har ikki soatda oziq berib turishni unutmang. Jojalarni boqayotgan vaqtda ulardan ovqat ganlarini ajratib oling. Jojalarni ikki kunlikdan boshlab saralab jig'ildonini eshlrmg. Jig'ildoni bo'shlarini alohida katakka qo'yib, ovqat yeyishga o'rgating.

10-Mavzu. Tovuqlar mahsuldorligini oshirish (4-10 soat)

Tovuqlarni to'g'ri boqish va parvarish qilish ularni sog'lig'ini va mahsuldorligini oshirish haqida to'garak a'zolariga ma'lumot bering. Tovuqlarni har xil tur, zot va yosh tovuqlarni tovuqxonada alohida-alohida kataklarda boqish yaxshi natija berishi to'g'risida tushuncha xosil qilish zarur.

Amaliy mashg'ulotlar.

Tovuqxonadagi tovuqlar yotadigan qo'noqlarni qirib tozalang, so'ngra tovuqxonaga polini tozalab supurib chiqing, axlat va to'shamalarni axlatxonaga olib borib tashlang. Tovuqlarning yeydigan oxirlarini, suv turadigan idishlarini tozalab yuving. Kataklardagi to'shamalarni yangilang. Tozalangan polga yupqa qilib yangi to'shama soling, tovuqxonaga hovlisini ham tozalang, axlatlarni axlatxonaga olib borib tashlang. Maktabga yaqin yerdagi parrandachilik fermalariga borib naslchilik ishlarini kuzating. Sertuxum tovuqlarni tanlab ular; ko'paytirish ustida amaliy ishlarni bajaring. Yaxshi zotli tovuqlarni ko'paytirib tovuqlar galasini to'ldirib turing.

11-Mavzu. Tovuq kasalliklari va uni oldini olish (2-10 soat)

Ko'pincha o'lat yoki yabo kasalligi bilan kasallangan tovuqlarning 90-100% o'ladi. Vabo yoki o'lat kasalligini dastlabki belgilari paydo bo'lishi bilan oq tovuqxonada «karantin» e'lon qilinishi lozimligi tushuntiriladi. Bu kasal bilan og'riq tovuqlarning go'shti tez yo'qotiladi. Ovqatga ishlatmaslik haqida tushuntiriladi. Tovuxona ya undagi asbob-uskunalarini dezinfektsiya qilish lozimligi haqida gapiriladi. Kasallikni oldini olish uchun tovuqlarni veterinariya shifoxonasida ro'yxatdan o'tkazilishi kerakligini aytiladi.

Amaliy mashg'ulotlar:

Tovuqxonangizdagi tovuqlarni tekshirib sog' va kasallarini aniqlang. Agar kasal yuqtiruvchi tovuqlarni ko'rsangiz darhol veterinariya vrachiga murojaat qiling. Tovuxonani va tovuqlar yotadigan qo'noqlarni ohak bilan oqlang. Barcha tovuqxonada asbob uskunalarini dezinfektsiya qiling.

12-Mavzu. Tovug ya jo'jalarni kuzatish ya ular bilan tajriba qo'yish (4-10 soat)

Tovug ya jo'ja boqishda bir qancha kuzatish ya tajribalar o'tkazish mumkinligi to'g'risida tushuntirib berasiz. Bu ishlarni bajarish o'quvchilarni zoologiyadan olgan bilimlarini mustahkamlashini va kengaytirishini, natijada ularni to'g'ri boqib ulardan ko'proq go'sht ya tuxum olishlariga yordam berishi to'g'risida tushuntirib berasiz.

Amaliy mashg'ulotlar:

Tovuqlarga har xil oziqa berib boqing, ularni ratsionini tuzing. «Har xil oziqa berib boqilgan tovuqlarni ular mahsuldorligiga ta'siri» nomli tajriba o'tkazing.

Oziqlantirish tartibi bilan ham ularni tuxumini ko'p oz qilishga ta'sirini o'rganuvchi tajriba o'tkazing. Jo'jalarni oziq ratsioniga makkajo'xori donini ko'proq qo'shib berib boqib, ularni o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini biluvchi tajriba o'tkazing. Tovuxonada qilingan ishlarni yakunlash. Fotosuratlar, tovuq va jo'ialar suratlari, uyalaridagi tuxumlarni yig'ishtirish paytidagi suratlar, sinfdagi eng yaxshi parranda boquvchi o'quvchilarning fotosuratlarini hamda ma'lumotlar yig'iladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Z.M.Shinkevich, M.Ishaqov. Maktab o'quv-tajriba uchastkasida amaliy mashg'ulotlar. 7-sinf uchun qo'llanma «O'rta va oliy maktab» 1961 yil.